

"QISSASI RABG'UZIY ASARIDAGI ARXAIZMLAR"TAHLILI

*Elbosheva Shaxina**Termiz davlat universiteti Özbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada Rabg'uziyning Qissasi Rabg'uziy asarida qóllanilgan arxaizmlar tasnifi va asarlaridagi talqinlar ularning ma'nolari yoritiladi. Asarning ma'no mohiyati orqali qóllanilgan arxaizmlar tasnifi körsatiladi.

Kalit sózlar: Qozi, hakim, Roviy, dinlig', yigitlar arig'i, tafakkur, tahlil, talqin, Volly, La'l, Malik.

Kirish

"Qissasi Rabg'uziy" asari turkiy xalqlar orasida tarqalgan. U payg'ambarlar haqidagi qissalardan iboratdir. Bu asar o'zbek nasrining eng qadimiy namunalaridan biridir. Unda XIIIasr oxiri XIV asr boshlaridagi o'zbek adabiyotining bir qator o'ziga xos xususiyatlari juda yorqin nomoyon bo'lган. Payg'ambarlar haqidagi Rabg'uziyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo'lган. Ularda adib olamning yaratilishi, tabiat va jamiyat hodisalari insoniy munosabatlar borasida fikr yuritadi. Qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil qiladi. Ular o'z ildizlari bilan "Qur'on" va "hadis"larga tarixiy ma'nbalarga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning hammasi birinchi navbatda, Rabg'uzuy badiiy tafakkur mevalaridir. Mavzu doirasiga ko'ra asar qissalari juda rang barang, hilma xil va yorqin tasvirlarga ega. "Qissasi Rabg'uziy" asari turkiy xalqlar orasida tarqalgan. U payg'ambarlar haqidagi qissalardan iboratdir. Bu asar o'zbek nasrining eng qadimiy namunalaridan biridir. Unda XIIIasr oxiri XIV asr boshlaridagi o'zbek adabiyotining bir qator o'ziga xos xususiyatlari juda yorqin nomoyon bo'lган. Payg'ambarlar haqidagi Rabg'uziyning olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan ifodalash uchun vosita bo'lган. Ularda adib olamning yaratilishi, tabiat va jamiyat hodisalari insoniy munosabatlar borasida fikr yuritadi. Qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil qiladi. Ular o'z ildizlari bilan "Qur'on" va "hadis"larga tarixiy ma'nbalarga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Ammo bularning hammasi birinchi navbatda, Rabg'uzuy badiiy tafakkur mevalaridir. Mavzu doirasiga ko'ra asar qissalari juda rang barang, hilma xil va yorqin tasvirlarga ega.

Asosiy qism

Rabg'uziy o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida mavqe qozongan adibdir. U Xorazmning Raboti O'g'uz degan joyida tug'ilgan. Rabg'uziy "Qissasi Rabg'uziy" asarining muqaddimasida otasi Burhoniddinning O'g'uz Rabotining qozisi bo'lganligini aytib o'tadi. Asar Nosiruddin To'qbo'g'aning topshirig'i asosida

yozilgan.1 Muallif uni “...yigitlar arig’i (poki) ulug’ otlig’, qutlug’ zotlig’, ezgu xulqlig’, islom yorug’lig’, mo’g’ul sonlig, ‘musulmon dinlig’, odamiylar ishonchi, mo’minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak) aqli tengiz” deb ta’riflaydi. Nosuruddin To’qqbo’g’abekka bag’ishlangan sheriy madhiyada uning “arslon mengizlik surasi” “ko’rkluk sifatlig’ surasi” “tuz so’zlayur so’zni uqa” singari sifatlari keltirilgan.[1] Rabg’uziyning ushbu asardan boshqa ijodiy merosi haqida ma’lumotlar mavjud emas.Ushbu tahlillar esa yuqoridagilar lingvistik tahlil vositasidir.Masalan:ushbu hikoyatni she’riy bayonidagi sözlarni tahlil ostiga olsak,

QISSASI YUSUF SIDDIQ ALAYHIS-SALOM

Chin o’n ikki erdi Ya’qub sovchining bolalari,
 Ko’rsa aning birtak erdi bo‘ylari, bololari.
 O’n birinchi Yusuf erdi suvrati yavloq badiz,
 La’l ichinda gulchilar ko‘p lu’lu’i lolalari.
 Ko‘rk qiliq ziynat malohat ham nubuvvat, ham karam.
 Ota sevgan,otasing‘a tush ko‘rub yo‘rdirg‘uchi,
 Ne hasad qildi, ko‘r anga ul o‘gay og‘alari.
 Ul Misr mulki ichinda maliklar xotunlarin,
 Qul qilg‘an ul qamug‘ni zulfining lolalari.
 Qul sotildi el ichinda qayra oldi qul qilib
 Voliy bo‘ldi Misr ichinda bo‘ldilar mavlolari.[2]

Ushbu hikoyatdagi:Yavloq,Malik,voliy,nubuvvat,La'l kabi sözlarni olsak."La'l" sözining ma'nosi yoqut ma'nosini anglatadi,yana bir ma'nosi "mato,gazlama"ma'nosini anglatadi hozirda kamdan-kam holatlarda qöllaniladi."Voliy" sözining ma'nosini tahlilga oladigan bolsak,ma'no jihatdan "hukmdor,podshoh"degan ma'nolarni anglatadi turkiy xalqlarda esa xon tomonidan tayinlanadigan hokim ma'nosini anglatadi ushbu söz ham hozirda arxaik sözga aylanagan.[3]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu asarni tasnif qilish jarayonida köplab arxaik sözlarga duch kelishimiz mumkin.ushbu jarayonni tahlili davomida Yusuf alayhissalom hikoyati doirasidagi ayrim joylarda keltirilgan arxaik sözlarning tanifi va talili körib chiqildi asar didaktik jihatdan talqin qilinish mobaynida köplab ilmiy,nazariy ahamiyatga molik jihatlari mavjudligini körishimiz mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Rabg’uziy. Qissasi Rabg’uziy. "Yozuvchi", 1-2-kitob, T., 1990-91.
2. O’zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik 1-tom, 1977.
3. N.Mallaev. O’zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob, 1969.